

“DEVONU LUG‘ATIT-TURK” ASARIDA KELISHIK VA ZAMON QO‘SHIMCHALARINING QO‘LLANILISHI

Zakirova Hurshida Jamoliddin qizi,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,

O‘zbek tili adabiyoti yo‘nalishi talabasi.

E-mail: hurshydazakirova@gmail.com

Muratova Nafisa Baxtiyarovna,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,

O‘zbek tilshunosligi kafedrasida o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari haqida, jumladan, nusxalari to‘g‘risida ayrim ma‘lumotlar, asarda qo‘llangan kelishik va zamon qo‘shimchalari, ularning hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi formasidan farqi hamda o‘xshashliklari yoritildi.

***Kalit so‘zlar:** qomusiy asar, qiyosiy lingvistika, chog‘ishtirma tadqiqot metodikasi, lug‘atshunoslik.*

“Devonu lugotit turk” (“Turkiy sozlar devoni”) asari XXI asrning ikkinchi yarmida Mahmud Koshgariy tomonidan Magribu Mashriqqa turkiy xalqlar tili, madaniyati hamda tarixi haqda bayonot beruvchi vosita sifatida yaratilgan qomusiy asar hisoblanadi. Yozilgan yillari milodiy 1071-1072-yil oraligini oz ichiga oladi. Asarning yagona qolyozmasi hijriy 664, milodiy 1266-yili Shomda kotib Abu Bakr Damashqiy tomonidan Mahmud Koshgariyning oz qoli bilan bitilgan nusxasidan kochirib olingan. Ushbu yagona nusxa bugungi kunda Istanbuldagi Millat kutubxonasida saqlanmoqda. Qolyozma 639 bet, ya’ni 320 varoqdan iborat. Asarda turkiy tillar ilk bor arab tilshunosligi metodologiyasi doirasida bayon qilingan.

Muallifning yana bir e'tirof etish joiz bo'lgan yutug'i u turkiy so'zlar tuzilishi, tilning o'ziga xosliklarini hisobga olib, lug'atchilikning o'ziga xos yangi yo'nalishini ochdi va turkiy lug'at boyligini etnolingvistik, lingvokulturologik, qiyosiy-tipologik jihatdan ham tadqiq qildi. Mahmud Koshg'ariy turkiy fonetika va fonologiya bilimdoni hisoblanib, arab xatini shu qadar turkiy tilga puxta moslashtirganki, bu amaliyot hatto XX asr boshlariga qadar aytarliq o'zgarishlarsiz to'qqiz asrdan ortiqroq qo'llanilib kelindi.

Mahmud Koshg'ariy xuddi arab tilshunosligidagi kabi turkiy tillarda ham so'z turkumlarini uch guruhga ajratgan. Shu so'z turkumlaridan biri fe'llar bo'lib, muallif fe'llarni boshqa so'z turkumlariga nisbatan chuqurroq tahlil qiladi. Asarda Koshg'ariy fe'llarning shaxs, nisbat va zamon kategoriyalari haqida ishonchli ma'lumotlarni jamlagan. Biz esa oldimizga, aynan, ushbu asardagi zamon qo'shimchalarini o'rganishni maqsad qilib qo'yganmiz.

Koshg'ariy fe'llarni uchta zamonga bo'lib tahlil qiladi: o'tgan, hozirgi va kelasi. Jumladan, fe'llarning o'tgan zamon shakllarini orqa qator unlilar bilan bir safda *-di* shaklida (*sadi* - sanadi), old qator unlilar bilan esa *-di* shaklida (*öpkilädi* - xafa bo'ldi) ifodalaydi. Hamda o'tgan zamon shakli affiksi *-di* haqida to'xtalib, shunday deydi: "O'tgan zamon fe'l yasovchi *-di p,t,ch,k* kabi to'rtta qattiq harflar bilan qo'shilganida *"d"* *"t"*ga almashadi. Chunonchi, *tapti* (tepdı), *tutti* (oldı), *qachtı* (qochdı), *chö'kti* (cho'kdi) kabi. O'zidan keyingi *"d"*ni *"t"*ga almashtirishda *"q"* ham *"k"*ga o'xshaydi. Chunonchi, Ol manga baqtı kabi. Bu *"d"* ni *"t"*ga almashtirish, asli *"d"*dir. Yuqoridagi harflarga qo'shilganda *"t"* ravishda talaffuz qilish yaxshiroqdir". Ham o'tgan zamoni bildiruvchi *-di* shaklining turkiy tillar orasida variantlanishini ko'rsatib beradi. Siradan, chigil, uyg'ur, yag'mo singari qabilalar tillarida o'tgan zamoni ifodalash uchun *-di* qo'shimchasi qo'shilishini ta'kidlab ko'rsatadi. O'g'uzlar va qipchoqlarning ba'zilari, masalan sovorinlar bu qo'shimchani oxiriga o'zakning qattiq, yoki yumshoqligiga qarab *"q"*, qo'shib ishlatilishi va bu qo'shimcha birlik va ko'plikda ham, shaxslarda ham yoki *"k"* birdek qo'llanishi, demakki, shaxs va sonda mo'tadillashuvi bayon qilinadi. Masalan: *man yä qurduq, sän yä qurduq, ul yä*

qurduq, biz yä qurduq, siz yä qurduq; yoki: men keldük, sen keldük, ül keldük, biz keldük, siz keldük, ülär keldük.

Hozirgi zamon fe'lining shakllari haqida esa nima uchundir fikr yuritilmaydi. Lekin, asarda *-mäqda, mäкта* tarzida ishlatadi

Kelasi zamon fe'li barcha fe'l turlariga *-r* qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilinishi ko'rsatiladi. Masalan, *türür* (tur fe'lidan), *kelir* (kel fe'lidan), *kulur* (kul fe'lidan). Shuningdek, *-ğäy, -qäy, -käy, -gäy* affikslari ham kelasi zamoni ifodalashini ta'kidlaydi: *qürğäy, säğqäy, kelgäy*. Kelasi zamon shakli ham turk va uyg'urlarda farqli qo'llanishi ko'rsatiladi: uyg'urlarda shaxs qo'shimchasidagi birinchi tovush tushib qoladi. Masalan: O'g'uzchada: *barürän, kelürän*; Turkchada: *bürürmän, kelürmän* tarzida. Chigil, uyg'ur, yag'mo, tuxey kabi qabilalarda ismi zamon, ismi makon va qurol otlarini ifodalash uchun xizmat qiluvchi *-ğü, -gu* qo'shimchasi o'g'uz va qipchoq qabilalarida *-äsı* qo'shimchasi bilan almashinishini aytadi.

Yuqoridagi fikrlardan shuni xulosa qilamizki, "Devonu lug'atit turk"da zamon qo'shimchalari bugungi kunda hozirgi o'zbek adabiy tilidagidan unchalik katta farq qilmas ekan. Faqat, kelasi zamon qo'shimchasi bugungi kunda arxaiklashib, iste'moldan chiqib ketgan.

FORDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Devonu lugati-t-turk (Turkiy so'zlar devoni) / M. Koshg'ariy. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.*
2. *Mahmud Koshg'ariy. Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'otit turk) Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. Mutallibov. I-II tomlar. Toshkent, 1960-1963*